



A BRIEF REPORT ON THE RESEARCH CONDUCTED AT KHANABAD-1, A SITE BELONGING TO THE EARLY IRON AGE AGRICULTURAL CULTURE OF THE FERGANA VALLEY

Nasibillo Kambarov

*Doctoral Student, Department Uzbekistan–China Joint of Archaeology
Fergana State University*

dr.kambarov@pf.fdu.uz

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Early Iron Age. Khanabad-1, Davan state, ornament, ceramics. Shoraboshot.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: In this article, the author briefly reflects on the results of research work conducted at the Khanabad-1 monument in 2020-2023 and some comparative analytical discussions. Also, suggestions are made regarding the problems of the material culture of the Early Iron Age of the Fergana Valley and issues of statehood, and the 1st stage of the Davan state.

FARG‘ONA VODIYSINING ILK TEMIR DAVRI DEHQONCHILIK MADANIYATIGA TEGISHLI YODGORLIK - XONOBOD-1 DA OLIB BORILGAN TADQIQOT ISHLARI HAQIDA QISQA XABAR

Nasibillo Kambarov

*O‘zbekiston-Xitoy qo‘shma arxeologiya kafedrasi doktoranti
Farg‘ona davlat universiteti*

dr.kambarov@pf.fdu.uz

Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Ilk temir davri. Xonobod-1, Davan davlati, ornament, sopollar. Sho‘raboshot.

Annotasiya: Ushbu maqolada muallif Xonobod-1 yodgorligida 2020-2023-yillarda olib borilgan tadqiqot ishlarining natijalari va ba’zi qiyosiy tahliliy muhokamalar haqida qisqacha fikr yuritilgan. Shuningdek, Farg‘ona vodiysining ilk temir davri moddiy madaniyati muammolari va davlatchilik masalalari, Davan davlatining 1-bosqichi bilan bog‘liq takliflar berib o‘tilgan.

КРАТКОЕ СООБЩЕНИЕ О ПРОВЕДЁННЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ НА ПАМЯТНИКЕ ХАНОБОД-1, ОТНОСЯЩЕМСЯ К ЗЕМЛЕДЕЛЬЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ РАННЕГО ЖЕЛЕЗНОГО ВЕКА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Насибилло Камбаров

Ферганский государственный университет

докторант совместной узбекско-китайской археологической кафедры

dr.kambarov@pf.fdu.uz

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ранний железный век. Ханабад-1, государство Даван, орнамент, керамика. Шорабошот.

Аннотация: В данной статье автор кратко рассматривает результаты научно-исследовательских работ, проведенных на памятнике Ханабад-1 в 2020-2023 годах, и проводит некоторые сравнительно-аналитические обсуждения. Также предлагаются решения проблем материальной культуры раннего железного века Ферганской долины и вопросов государственности, а также первого этапа развития государства Даван.

Kirish. Xonobod-1 yodgorligi 2020-yilning yoz oyida Samarqand arxeologiya instituti, “Hamkor Stimul Servis” ilmiy markazi va Farg‘ona davlat universiteti hamda Andijon teleradiokompaniyasi bilan Xonobod buloqlariga bag‘ishlangan ko‘rsatuv olish jarayonida dastlabki belgilari aniqlangan. Keyin, Samarqand arxeologiya instituti hamda Farg‘ona davlat universitetining ilmiy xodimlari tomonida olib borilgan tizimli arxeologik qidiruv tadqiqot ishlari davomida yodgorlikning joylashuvi belgilandi. Qidiruv ishlari davomida Xonobod-1, Xonobod-2, Xonobod-3 yodgorliklarining saqlanmalari aniqlandi. Ularning ichida ikkita qabriston va bitta turar-joy yodgorligi ekanligi kuzatildi. Xonobod-2 (40.816031°, 73.004146°, dengiz sathidan 720 m balandlikda) deb nomlangan turar-joy yodgorligi adir etagida, Xonobod-1 (40.815532°, 73.009148°, dengiz sathidan 755 m balandlikda) va Xonobod-3 (40.814618°, 73, dengiz sathidan 732 m balandlikda) qabristonlari mos ravishda 300 va 50 m masofada joylashganligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu yodgorliklarning mavjudligi hududni dastlabki tekshirish davomida olingan materiallar bilan ham tasdiqlanadi [16].

Xonobod-1 yodgorligida 2020-2023-yillarda 4 dala qazuv tadqiqot mavsumi davomida tekshiruv ishlari olib borildi va ushbu yodgorlikning Farg‘ona vodiysining ilk temir davri bo‘yicha barcha belgilari tasdiqlandi [13.14.15.16].

Qazuv ishlari davomida 22 ta qabr qazib ochildi, shuningdek, 1 ta kenotaf (M8) va yana bitta kuydirilganlik belgilariga ega qurbonlik marosimi o‘tkazilgan qabr (M14) lar o‘ziga xos

xususiyatlari bilan ajratildi. 22 ta qabrning 11 tasi ayollarga tegishli qabr (M1, M2, M3, M5, M7, M9-2, M12, M15, M18, M19, M20) lar, 9 tasi erkaklarga tegishli qabrlar (M4, M6, M9-1, M10, M11, M13, M16, M17, M21) ekanligi aniqlandi [13.14.15.16].

Shuningdek, Xonobod-1 qabristonida qabr o'ralarining chuqurlik holatiga ko'ra ikki tipi mavjudligi belgilandi. Ular "sayoz" tipdagi va "chuqur" tipdagi qabr turlari bo'lib, qadimgi yer sathiga dafn qilingan holat deyarli uchramadi. Eng sayoz qabr o'rasi ham 23 sm (M16) bo'lib, ikkinchi tipga tegishli qilib ajratildi. "Chuqur" tipdagi o'raga ega qabrlar M1 (2.20-190x60-70x90 sm), M2 (185-200x55-60x80 sm), M3 (185-195x65-75x125 sm), M4 (270-190x81-140-75x130 sm), M5 (205-185x45-60x135 sm), M7 (180x40-55x130-135 sm), M8 (175x55-60x60sm), M9-1 (180x80x60 sm), M9-2 (190x80x120-130 sm), M11 (180x45x60 sm), M12 (178x57-65-55x85-65 sm), M14 (280x100-90x110 sm), M15 (182x40-60-55x65-75 sm), M18 (215x50-73-58x107 sm), M19 (252x85-90x92 sm) o'ralari 60 sm dan 130 sm gacha chuqurlikka ega, ular qabristonda nisabat ko'proqni tashkil etadi. "Sayoz" tipdagi M6 (185x45-55x45 sm), M10 (160x45-60x45 sm), M13 (182x55-63-45x50 sm), M16 (188x48-53-46x23-44 sm), M17 (172x68-75-70x35 sm), M20 (180x50-45-35x40-45 sm), M21 (200x50-45-35x50 sm) qabr o'ralari biroz sayoz bo'lib, 23-50 sm chuqurlikkacha o'ralardan iborat [13].

2020-yilgi qazuv tadqiqoti davomida M-2 qabrining janubiy tomonida maxsus tosh halqa aniqlanib, uning g'arbiy tomonida uzunchoq toshlardan gorizantaliga 4 qator va vertikaliga 3 qator qilib terilgan maxsus dafn qurilmasi qayd etilgan. Vertikal holatdagi toshlar oralig'i tozalanganda, ikkita yonbosh holatda bir-biridan 14-15 sm masofa bo'shliq qoldirilib, undan ikkita bir hil kattalikdagi yonbosh holatda terilgan dastali (birining dastasi singan) sopol finjon qo'yilgan [16].

Halqaning qolgan sharqiy tomoni 2021-yilgi tadqiqotlar davomida tozalandi. Halqa tosh bostirmasi tarkibida sopol idishlarning singan parchalari mavjud bo'lib, bunday sopol siniqlarining qabr tosh uyumlarida uchrashi bu davr qabrlarining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi [5, 6, 7]. Bunday xususiyatlar dafn marosimi bilan bog'liqlikni ko'rstadi. Shuningdek, qazishma maydonining halqaning toshlardan maxsus terilgan dafn qurilmasidan 1 metr masofada tosh bostirma ostidan qadimgi gulxan izlari mavjudligi kuzatildi. Gulhan kuzatilgan joyda tosh bostirma toshlari boshqa qismlarga nisbatan biroz siyrak joylashgan. Yongan olov belgilari saqlangan joy diametri 35-40 sm. Gulhan izlari, shuningdek, M3, M4, M8, M9 tosh uyumlari yuzasida ham kuzatilgan. Barchasida tosh uyumi qo'zg'atilgan holatda saqlangan [14, 15, 16].

Tosh uyumlari orasidan kuzatilgan sopol idishlarning siniqlari asosan qo'lda va charxda yasalgan sopollarga tegishli. Qo'lda yasalgan sopollarning ham yuzasiga ornament berilgan va bezaksiz turlari kuzatildi. Sopollarning katta qismi qo'lda yasalgan. Ularning ichida matodan foydalanib yasalganlari ham mavjud, chunki, sopolning ichki qismida mato izlari saqlanib qolgan (Абдуллаев, 2021. С. 20-21, рис. 13-14). Ular, yuqorida keltirganimizdek, tosh bostirma

qurilayotganda, dafn marosim vaqtida sindirib tashlab turilgan va butun idishlarni maxsus joylarga qo'yishgan bo'lishi mumkin. Bunga keyingi tadqiqotlarimiz davomidagi kuzatishlarimiz aniqlik kiritmoqda.

Toshlar uyumi orasida kuzatilgan singan holatdagi yuzasiga bezak berilgan ko'za sopol kompleksi ichida o'ziga xosi bo'lib, Eylaton madaniyatiga xos deb belgilan sopollar ichida uchramagan. Uning taxminiy balandligi 30 sm bo'lgan dastali (singan) va jo'mrakli ko'zaning singan bo'laklari aniqlandi (5-rasm). Ko'zaning bu madaniyatga tegishligini faqat uning sirtidagi naqshlar bildirib turardi. Vaholnaki, shu vaqtgacha bu kabi ko'zalar ziroatkor (Chust va Sho'raboshot) madaniyatlarida uchragan [4, 27][10, 328]. Bundan xulosa qilsa bo'ladiki, dehqonchilik madaniyati sohibllariga tegishli.

Natija va muhokama. Xonobod-1 qabristoni adir hududida joylashgani sababli tuprog'i juda quruq, biroq o'tgan asrning 60-80-yillari qabriston markazidan qo'shni Qirg'izstonning Jalolobod viloyatiga kanal orqali suv o'tkazilgan. Shu tufayli, qabrdagi jasad suyaklari qattiq buzilishga kelgan. Garchi jasad suyaklarining saqlanish holati ularni aniqlash imkonini bersada, biroq hududning tabiiy muhiti sababli ular jiddiy shikastlangan. Bundan tashqari, bu xududda qadimdan tuproq qurlari mavjud bo'lib ular qabrlar joylashgan yerning yuqoridan 1.5 metr chuqurlikkacha yeb o'z gumbaklarini joylashtirib, bo'shliq hosil qilgan. Natijada, qabr chuqurlarining chegaralarini va materik qatlam chiziqlaridan ajratish qiyin holatga kelib qolgan. Tashlangan tuproq va materikning ranglardagi farqlari kuzatilmadi. Qabrlarning qurilishi vaqtida adirning tuprog'i quruq va kun issiqligi hisobiga qatlamlardagi rang tezlik bilan quridi, uning rangida o'zgarish holati kuzatildi, faqatgina suv sepib namlatish yordamida ranglarni qayta ajratib ko'rish imkoni bo'ldi. Shuningdek, qabr o'ralari tosh va tuproq bilan to'ldirilgan bo'lib, toshlarning mavjudligiga ko'ra qabrlarning chegarasi aniqlandi. Barcha "chuqur" tipdagi qabr o'ralarining tarxi uzunchoq oval shakliga ega bo'lib, devorlari 15-20° burchak bilan qiyalab pastga tomon davom etgan. Faqatgina, M4 bundan mustasno. M4 qabrining janubiy tomonida o'raning uzunasi bo'ylab sharq-g'arb yo'nalishda bitta zinasi mavjud. Sopol ham shu zinaga yasalgan tokchaga joylangan [14].

Xonobod-1 qabrlarining qurilish strukturasi Oqtom [5], Sufon [7] va Kungay [6] qabristonlari bilan o'xshash, lekin Kungay qabristonining asosiy qismini tashkil etgan qadimgi yer yuzasiga dafn etilgan holat uchramaydi. Odatda qabrlar yorma tipida bo'lib, bir oz og'ish bilan sharqdan g'arbga yo'nalgan. Jasad orqasi bilan yerga qo'yilib, yuzi yuqoriga qaratilgan holda yotqizilgan. Xonobod-1 qabrlarining deyarli barchasi shunday holatda dafn etilgan. Faqatgina, M4 va M10 bundan mustasno. Ulardagi jasad o'ng tomoniga yonboshlatilgan, g'ujanak holatda qabrga qo'yilgan [14].

Xonobod-1 da ham qolgan qabristonlarda kuzatilgan sharqdan g'arbga cho'zilgan, ko'rinishidan bitta tosh uyumi ostidagidek qabrlar shodasi mavjud bo'lib, ushbu qabrlarni bitta patriarxal oilaga tegishli qabrlar hisoblanadi. Ba'zi qabrlarda erkak va ayol bitta qabr o'rasiga ketma-ket dafn etilgan. Bunday takroriy dafnlar oilaviy qabrlaning mavjudligini ifodalaydi. Takroriy dafnlar M9-1 va M9-2, M20 va M21 larda kuzatildi. Ulardagi jasadlarning bittasi erkak ikkinchi ayol kishi. Bunday takroriy dafnlar boshqa qabristonlarda ham uchraydi [14].

Xonoboddagi qadimgi madaniyat sohiblarining ko'mish udumlarida o'ziga xos jixatlar ham bo'lib, "chuqur" tipdagi qablarga jasadlarni ko'mishda, dastlab, yog'och g'ovalardan foydalanib jasadning ustini yopishgan va uning ustidan tuproq va tosh tashlab qabr to'ldirilgan. O'ra tuproq qatlamini tozalash vaqtida uning ichidan diametri 4-10 sm, saqlangan uzunligi 5-9 sm xajmidagi to'la chirigan yog'och ustunchalarning qoldiqlari aniqlandi. Shuningdek, ba'zi qabrlarda (M1, M4) suyakka juda yaqin masofada tashlangan tuproqlar orasida kuygan yog'ochning bir nechta mayda bo'laklari aniqlandi. Ushbu holatlar diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Lekin, tosh uyumi yuzasida uchragan o'choqlarning barchasi keyingi davrlarda mahalliy aholi tomonidan qoldirilganligi tasdiqlandi [14, 15].

Ilk temir davri Farg'ona vodiysi qabrlarida ko'mish an'alariga ko'ra, jasadning bosh tomoni, shimol va janub tomonlarga bir oz og'ish bilan g'arbga yo'nalgan. Bu hol jasadning qaysi faslda ko'milishiga bog'liq bo'lgan deb xulosa qilish mantiqan maqbulligini ko'rsatadi. Zero, diniy e'tiqodiga ko'ra, tabiat kuchlaridan quyosh asosiy xudolaridan biri bo'lgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun, quyoshning botish azimuti turli faslda o'ziga xos ravishda og'gan holda botgan. Bu esa, qadimda odamlar xayotdan ko'z yumgan jamiyat a'zolarini boshini so'nib botayotgan quyoshga yo'naltirib ko'mishgan degan fikrni mantiqan tasdiqlaydi. Bizning tadqiqotimiz davomida Xonobod-1 qabrlarining bosh yo'nalishlari quyoshning yillik botish azimuti bilan solishtirilganda dafnlar asosan noyabrdan may oyiga bo'lgan oraliqlarda amalga oshirilganligini ko'rsatyapdi.

Qabrlarda shuningdek, bosh va oyoq tomonlariga, jasadning tag qismiga maxsus toshlar terilgan holatlar ham kuzatildi. Bunday toshlar erkak va ayollarning qabrlarida ham uchraydi, toshlarning qo'yilishida ma'lum qoidalar mavjudligi belgilari mavjud emas. Bunday toshlar boshqa qabristonlarda ham uchraydi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Xonobod sopol kompleksining aksariyatini qo'lda yasali, bo'yoq bilan naqshlangan idishlar tashkil qilgan yarim sferasimon shakldagi kosa (чаша) va shokosa (миска) lardan iborat bo'lib, asosan "mato shablonida" tayyorlangan. Bu idishlarning 1-turidagilar balandligi 6-8 sm, gardishining diametri 16-21 sm hamda 2-turidagilar balandligi 9-11 sm, gardishining diametri 22-26 sm. Xonobod-1 yodgorligidan olingan qo'lda yasalgan naqshinkor kosa idishlarning komplekslarida vodiyni g'arbiy va janubi-g'arbiy xudlaridagi sopol

idish ornamentasiyasida yana bir farqli tomoni shundaki – ayrim idishlarning qorin qismida ichida turli geometrik chiziqlar bilan to'ldirilgan romb shakllarining gorizonta terib chizilganligidir. Lekin, boshqa tipdagi sopol idishlarda Xonobodgidek bezak usullari saqlangan [17].

Izlanishlarimiz natijasida qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan sopol idishlardan tashqari ikkita charxda tayyorlangan gardishi tik tanasi yarim sferasimon hamda tagi tekkis idish topilib, u mayin qum qo'shilgan och sarg'ish loydan tayyorlangan. Xurmachaning 4/1 pastki qismida jilvirlangan (loshenie) sariq angob qoplamasi saqlangan, ya'ni bu idishni sirti dastlab sariq angob bilan qoplangan. Idish shaklining o'ziga xosligi shundaki, uni kelib chiqishi dastlab Oqtom mozorlarida aniqlangan va tuvak (xurmacha?) deb belgilangan (Гинзбург, Горбунова, 1957. С. 85-86, рис. 30, 23a-23b). Idishning qiyosiy solishtirma tahlil natijalariga ko'ra bu kabi idishlar Sho'raboshot yodgorligidan ham topilgan [10, 23], lekin bu erda ular qo'lda yasalgan va qizil ranga (angob) bo'yalgan, biroq shakli va xajmlari o'xshash bo'lishiga qaramay tadqiqotchi tomonidan ular kosa deb keltirilgan. Bunday kosalardan asosan qabrlarni ko'mish marosimida birga dafn etilgan. Oqtom, Kungay va Sufon qabristonlaridagi qabrlarda ham asosan qo'lda va charxda yasalgan shunday kosalar uchraydi. Bundan bilsa bo'ladiki, dafn marosimida foydalaniladigan idishlar va qabrga qo'yiladigan taomlar asosan kosalarga solib jasad bilan birga dafn etilgan. Bunday kosalarda taom yeyish ziroatkor xo'jalik vakillari tomonidan amalga oshirilgan bo'lishi mumkin.

“Sho'raboshot ziroatchilari Chust madaniyati davomchisi” deb ilgari surilgan g'oyaga doir Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanidagi Qo'shtepa-2 yodgorligini quyi madaniy qatlamlarida qayd etilgan qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan sopol idish fragmentlari qiyosiy solishtirma tahlil natijalarini ham keltirish mumkin. Qo'shtepa-2 eng quyi madaniy qatlamida aniqlangan erto'la ichida dastlab qayd etilgan sopol parchasidagi naqsh och qirmizi fon ustiga qizg'ish-jigarrang bo'yoq bilan idishning tashqi sirtida berilgan (Абдуллаев, 2018a, С. 8, рис. 4, 8). Naqsh ichi qiya kataklar bilan to'ldirilgan rombdan iborat bo'lgan. Bu kabi naqshlar, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'ziga xos ma'noni bildirib, Qadim Sharqni ilk davlatlari davrida shakllangan “xayot daraxtining” sxematik ramzini anglatgan (Амброз, 1965. С. 20-22; Комороци, 1981. С. 47-51; Караматов, 2017. С. 107). Shu tufayli, ehtimol, bunday naqsh vodiydagi nafaqat ilk ziroatkor Chust madaniyati sohiblari yaratgan idishlarda ko'p qo'llaniladigan bezaklar sarasiga kirgan [10, 26], balki bu an'ana bir qator texnologik o'zgarishlar va yangiliklar bilan boyitilgan holda antik davri yakuniga qadar vodiy kulolchiligida keng foydalanilgan. Antik davr qatlamlari ostidan ilk temir davri sopollarining uchrashi hududda doimiy ravishda odamlar istiqomat qilib kelganligini va madaniy almashinuv bosqichlarini ham ayni shu hududda boshdan kechirganligini ko'rish mumkin. Ilk temir davri sopollari hozirda vodiyning deyarli barcha hududlarida uchramoqda, Axsikent [1, 368] (III-II asrlar) va Quva shahristonlarida,

Xonqiz hududida [2, 177], Sho‘raboshot yodgorligining [18] atrofidan (g‘arbiy tomonidan), suv ombori bo‘ylaridan [19] (Tagay Asranov nomidagi Shoroboshat 6-maktab muzey fondi) va O‘zgan shahar [21](O‘zgan shahar muzeyi ko‘rgazmalari), G‘ayrattepa yodgorligi [20] hududlaridan ham topilgan. Butun vodiylar bo‘ylab turli arxeologik yodgorliklarda uchramoqda.

Sopollardagi romblar shodasi gorizontaal chiziq bilan ikkiga bo‘lingan va o‘zaro asoslari bilan tutash juft uchburchaklar qatorini tashkil etgan. Zero, bu kabi qiya chiziqlar bilan to‘ldirilgan uchburchaklar shodasidan iborat naqshlar ilk temir davriga oid idishlar uchun tez-tez uchrab turadigan ornament hisoblanadi (Гинзбург, Горбунова, 1957. С. 87, рис. 31, 2-3, 8; Латынин, 1960. С. 91, рис. 21).

Ichi qiya chiziqlar bilan to‘ldirilgan romblar vositasida bezatilgan idishlar Sho‘raboshot shahar xarobasining quyi qatlamlarida ham topilgan (Заднепровский, 1960а. С. 29, рис. 7, 16; Он же, 1962. С. 299, табл. LII, 1), biroq idish labidagi nuqtasimon hoshiya bilan tutashtirilgan ikkita parallel chiziqlar Qoradaryo shahar harobasidagi sopol buyumlari hamda Xonobod-1 qabr qo‘rg‘onidan topilgan marosim idishlarida ham aniqlangan [12, 236].

Qiyosiy solishtirma tahlillarga ko‘ra, Sho‘raboshot va Eylaton madaniyatlarining sopollari va yuzasidagi ornamentlarning turlari, ular o‘rtasidagi asosiy farq sifatida berilgan. Lekin, Eylaton madaniyatining asosan qabrlarida uchraydigan idishlar dafn idishlari ekanligini va Sho‘raboshot madaniyatidagi esa shahar va qishloq turar-joy yodgorliklarida doimiy, kundalik faoliyatda ishlatilgan idishlar hisoblanadi. Shuning uchun, shahar va qishloq turar-joy madaniyatida uchraydigan idishlarning turlari qabristonlarda uchragan dafn idishlarining turlaridan ko‘proqni tashkil etadi.

Farg‘ona vodiysining ilk temir davri yodgorliklarda uchraydigan yana bir sopol idishlarning naqshlaridan biri bu kosalarning quyi qismida joylashtirilgan aylana yoki uchlari birlashtirilgan gorizontaal chiziq ko‘rinishidagi ornamentasiya elementlarining mavjudligidir. Bunday belgilar umumiy bir madaniyatga tegishlilikni bildiradi, lekin, ba’zi hududiy xususiyatlar, qishloq hamda dehqon oilalarining o‘zlariga qulay hududlarda joylashuvi natijasida sopollarning yuzasidagi bezaklarda kam miqdorda farqlarni shakllantirgan bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Boshqa tadqiqotchilar tomonidan Xonobod ko‘chmanchilari deb aytilgan Xonobod-1 qabristonida ko‘chmanchilik bilan bog‘liq xech qanday belgi mavjud emas. Aksincha, yodgorlikda dehqonchilik bilan bog‘liq ko‘plab topilmalar saqlangan. Ular tosh o‘roq, yorg‘uchoq, urchuq va boshqalar. Shuningdek, izotop natijalari ham yodgorlik egalari asosan bug‘doy va arpa istemol qilganligini ko‘rsatmoqda. Bundan xulosa qilsak bo‘ladiki, Xonobod-1 yodgorligi egalarning asosiy xo‘jalik shakllari dehqonchilik bo‘lgan. Dehqonchilikka bog‘liq tarzda chorva hayvonlarini boqish ham ularning xo‘jaligining asosiy belgilaridan biridir. Bu chorvachilik ko‘chmanchi chorvachilik emas, doimiy chorva boqib yuradigan xo‘jalik ham emas. Davlatchilik

paydo bo'lish jarayonidagi iqtisodiyotning o'sishini ta'minlagan aralash xo'jalikning shakllangan bir bosqichi hisoblanadi.

Farg'ona vodiysidagi davlatchilik bilan bog'liq yozma manbalar [22. 23. 24] miloddan avvalgi II – I asrlarga oid Davan davlati haqida ko'plab ma'lumotlarni saqlab qolgan. Manbalarda Davanning geografik joylashuvi: “Dayuan Xiongnuning janubi-g'arbiy qismida va Xan sulolasining g'arbiy qismida, Chang'andan taxminan 10 000 li (Xan sulolasi kilometri) uzoqlikda joylashgan”, “Sharqda Yufu (hozirgi Sele, Shinjon) va Yuqi (hozirgi Xotan), g'arbda Buyuk Yuehji, shimolda Kangju, janubi-g'arbda Daxia bilan chegaradosh edi”; Jamiyati va xo'jaligi, asosan, o'troq dehqonchilik sivilizatsiyasi ekanligini takidlashgan: “Aholisi shaharlar qurib, u yerda guruch va bug'doy yetishtirish bilan shug'ullangan. Ular uzum yetishtirib sharob ishlab chiqarishgan. Ularda 70 dan ortiq bo'ysunuvchi shaharlarga va bir necha yuz ming aholiga ega”. “Askarlar otda o'q otishda mohir bo'lgan, asosan kamon va nayzalarni asosiy qurol sifatida ishlatishgan” [25], Chjan Chyan Xan imperatori Vu Di ga Davan haqida batafsil hisobot taqdim etganda bu davlatning “qon terlaydigan otlari” haqidagi ma'lumotlari ham o'rin olgan [26].

Xitoy manbalarida yozib qoldirilgan asosiy xo'jaligi dehqonchilik bo'lgan Davan davlati yozma manbalarda mill.avv. II asrdan mavjud bo'lsada, moddiy madaniyat davlatchilik asosini ilk temri davrining V asrlariga borib taqalishini ko'rsatyapdi.

Ilk temir davrini Farg'ona vodiysining dehqonchilik xo'jaligiga asoslangan davlatchilik asoslarining boshlangan davri sifatida belgilash vodiy tarixini yangi bosqichdagi tadqiqotlarini davomi sifatida baholanadi deb umid qilamiz. Bunda albatda yangicha va zamonaviy uslublar hamda vositalardan foydalanish muhimdir. Bu davrning madaniyatlar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlarni tadqiq qilish orqali, mahalliy hamda xususiy o'ziga xosliklarga aniqliklar kiritilib Davan davlatining birinchi bosqichining davri chegarasini belgilash va ilmiy asoslash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Xozirgacha olib borilgan an'anaviy arxeologik tadqiqot materiallari yetarli bo'lib, yangi bosqichda ilmiy (laboratoriya tadqiqotiga asoslangan) arxeologik tadqiqotlarni olib borishni qo'llab-quvvatlash ilmiy yangiliklarni samarali natijalarga erishishiga va muammoli masalalarga aniqlik kiritishda ko'maklashadi.

Xonobod-1 yodgorligining boshqa qabristonlarning xususiyatlar bilan amalga oshirilgan qiyosiy tahlil natijalari ilk temir davri yodgorliklarining barchasida kam miqdordagi farqlar bilan deyarli o'xshashligini ko'rsatyapdi. Shuningdek, yodgorlikdagi radiokarbon tekshiruvlari davriy jihatdan ham ikki bosqichni belgilab yodgorlikdan foydalanish vaqtini miloddan avvalgi V-IV asrlar va mill.avv. IV-III asrlar bilan davrlayapdi. Izotop tahlillari natijalari esa dehqonchilik xo'jaligi vakillari ekanligini tasdiqladi. Farg'ona vodiysining ilk temir davri muammolarini qayta tadqiq qilish, Eylaton va Sho'raboshat madaniyatlarining bir davrning ma'lum bir bosqichlardagi dehqonlarga tegishli madaniyat ekanligini, shuningdek, bu bosqichni Davan davlatining 1-

bosqichi qilib belgilash Fargʻona tarixi bilan bogʻliq tarqoq turgan maʼlumot va materiallarni jamlanishiga olib keladi hamda yangi ilmiy tadqiqotlar shakllanadi. Yangi tadqiqot bosqichida Davan davlatining 1-bosqichi bilan bogʻliq tadqiqotlar asosiy masalaga aynalanishiga va Ustoz arxeologlar tomonidan qoʻllab-quvvatlanishiga umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Абдулхамид Анарбаев. Ахсикет - столица древней Ферганы. Издательство «Tafakkur», Ташкент, 2013. С. 368.
2. Nodirbek Abdulhatov, Fayzullo Zohidov. Fargʻona tumani tarixi. Fargʻona, 2013. Xonqiz topilmasi rasm. 177-b.
3. Абдуллаев Б. М. Урбанизационные процессы античной Ферганы // История и археология Турана. Под ред. А. Э. Бердимуродова. Самарканд, 2017. № 3. С. 113-120.
4. Гаврюшенко П. П. Кулунчакское укрепленное поселение: автореф. дисс канд. ист. наук. Ташкент: "Узгипрозем", 1970. 27 с.
5. Гамбург Б. З., Горбунова Н. Г. Ак-тамский могильник // КСИИМК. Вып. 69. Москва: "Академии наук СССР", 1957. С. 78-90.
6. Горбунова Н. Г. Кунгайский могильник // АСГЭ. Вып. 3. Ленинград: "Гос. Эрмитаж", 1961а. С. 171-194.
7. Горбунова Н.Г. Суфанский могильник // АСГЭ. Вып. 11. Л., 1969.
8. Горбунова Н. Г. К вопросу о расписной керамике в Ферганской долине // СГЭ. Вып. XXI. Ленинград: "Гос. Эрмитаж", 1961б. С. 41-44.
9. Горбунова Н. Г. Археологические работы в Фергане // СГЭ. Вып. 22. Ленинград: "Гос. Эрмитаж", 1962. С. 54-60.
10. Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. Вып. 118. Москва-Ленинград: "Наука", 1962. 328 с.
11. Gorbunova N. G. The culture of Ancient Fergana VI century B.C. - VI century A. D. British archaeological reports. International Series 281. Oxford, 1986. 365 p.
12. Abdullayev A., Kambarov N. The results of the preliminary research of new monuments detected in Khanabad. Farghana. 2021. P. 233-249.
13. БАМ. 2023. 177. Xonobod-1 xisoboti-2023. Samarqand arxeologiya instituti arxivi. Ф.8.О.1.Д.228.
14. БАМ. 2023. 115 с. Xonobod-1 xisoboti-2022. Samarqand arxeologiya instituti arxivi. Ф.8.Д.223
15. БАМ. 2022. 64 с. Xonobod-1 xisoboti-2021. Samarqand arxeologiya instituti arxivi. Ф.8.Д.222

16. BAM. 2021. 177. Xonobod-1 xisoboti-2020. Samarqand arxeologiya instituti arxivi. Ф.8.О.1.Д.228.
17. Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi. Qadimgi davr ko‘rgazmalar zali.
18. Zhang Weixin, Bakit Amanbayeva, Kambarov Nasibillo va b. To‘rt davlar arxeologlarining qo‘shma xalqaro ekspeditsiyasi vaqtida ko‘tarma material sifatida aniqlandi.
19. Qirg‘iziston Respublikasi Manas viloyati (eski Jalolobod viloyati) Bazarqo‘rg‘on tumani Sho‘roboshot qishlog‘i Tagay Asranov nomidagi Shoroboshat 6-maktab muzey fondi.
20. Vodiynoma, 2019-yil, №2(13) aprel-iyun. ISSN 2181-8738. 2-son muqovasi: Guldor sopol tuvak, Andijon viloyati G‘ayrattepa, mil.avv. IV-I asrlar.
21. Qirg‘iziston Respublikasi O‘zgan shahri muzeyi ko‘rgazmalar zali.
22. 《史记·大宛列传》西域第四十六 // “Tarixiy yilnomalar – Dawan bo‘limi” 46-bob: G‘arbiy mintaqalar. <https://wap.ynpxrz.com/n594215c1884.aspx> / <https://m.scfaying.com/xiandaiwenyuedu/11272/>
23. 《汉书·张骞传》 // “Han Dynasty Chronicle - Biography of Zhang Qian” https://m.163.com/dy/article/EQNGTLF70521F1RT.html?spss=adap_pc
24. 《张骞的“凿空”之旅》 // Zhang Qian's Journey of "Opening Up the Western Regions". <https://www.wenxue360.com/archives/1204.html> /
25. 暮霭《史记·大宛列传骞身所至大宛》原文、翻译及鉴赏 // Mu Ai. "Records of the Grand Historian: Biographies of Dayuan: Where Qian Went to Dayuan" - Original Text, Translation, and Appreciation.
26. 《史记》及《汉书》西域地理记摘录// “Tarixiy yilnomalar” va “Xan davri yilnomasi” da G‘arbiy mintaqalar geografiasiga oid ma’lumotlar https://m.163.com/dy/article/EQNGTLF70521F1RT.html?spss=adap_pc